XALQ DEPUTATLARI BUXORO TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 28 - dekabr VI-82-161-2-32-K/23 Buxoro tuman hokimligi

Buxoro tuman ining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023 yil 7 noyabrdagi 02-1150-sonli xulosasi hamda Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023 yil dekabrdagi xatini inobatga olib, xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq, Buxoro tumani mahalliy budjetining 2024 yil uchun daromadlari 123 077,3 mln.so‘m, xarajatlari 184 086,8 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 61 009,5 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun Buxoro tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025 yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Buxoro tumani bo‘yicha g‘aznachilik bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024 yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024 yil uchun tuman budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2024 yil uchun tuman mahalliy budjetining tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1650,3 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2024 yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Buxoro tumani tuman budjetining, tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2024 yil uchun tumanning budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining tuman aholisidagi ulushiga muvofiq hisob-kitob qilinsin.

b) Buxoro tumanining budjet daromadlari tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar.

v) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, tumanlarning tuman budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Karimov), soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) tuman hokimligi va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (S.Ahmedov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (R.Rustamov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15.Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi, tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha

mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin. 16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tuman hududiy bo‘limi bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Buxoro tuman hududiy bo‘limi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tuman hududiy bo‘limi, tuman soliq inyapeksiyasi (S.Axmedov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Karimov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024 yilning 1 iyuliga qadar 2023 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Tuman irrigatsiya tizimlari havza bo‘limi (R.Sariev) va tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Atoev), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi, majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi, Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi tuman maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi hamda sog‘liqni saqlash bo‘limilarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirish;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borishni ta’minlasin.

22. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

23. Tuman hokimligiga:

tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

24. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman hokimligi va tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan
chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga

yuklansin.

Sessiya raisi **R.Nabiyev**

Xalq deputatlari Buxoro tuman Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
1-ilova

Buxoro tumanining 2024 yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2025-2026 yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2025 yil	2026 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	0,0	0,0	0,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	0,0	0,0	0,0
3.	Ist’emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	0,0	0,0	0,0
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	115,7	116,5	117,4
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,9	104,3	104,5

6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	107,7	108,3	109,6

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
2-ilova

Buxoro tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

mln.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	15 545,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31 892,4
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,0
5	Aksiz solig‘i, jami	30 219,9
	shu jumladan:	0,0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	30 219,9
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 652,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 647,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 273,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 164,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	*300,0*
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 199,0
12	Davlat boji	0,0
13	Jarimalar	0,0
14	Ijara to‘lovi	130,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0
16	Yig‘imlar	4 055,0
17	Xususiylashtirish	0,0
18	Boshqalar	0,0
JAMI		**123 077,3**
19	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	61 009,5
HAMMASI		**184 086,8**

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Buxoro tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

mln.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**184 086,8**
1.	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	26 747,4
2.	Tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi	81 475,2
3.	Tuman madaniyat bo‘limi	4 461,1
4.	Tuman Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	8 221,7
5.	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 727,3
6.	Tuman irrigatsiya tizimlari havza bo‘limi	1 672,2
7.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 066,0
8.	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4 274,0
9.	Tuman hokimligi	47 833,8
10.	Tuman Davlat soliq inspeksiyasi	4 608,0

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
4-ilova

Умумдавлат солиқларидан туман маҳаллий бюджетига 2024 йилдаги ажратмалари меъёрлари

фоиз ҳисобида

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	Айланмадан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи* (**)	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи*	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ*	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Юридик шахслар ер солиғи*	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи
1	Бухоро тумани	0	100	45	100	0	50	100	50	100

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Ер каъридан фойдаланган-лик учун солиқ (норуда материаллари)	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	Давлат божлари***	Жарималар***	Йиғимлар***	Давлат ташкилотлари фойда солиғи****	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	Хусусийлаш-тириш	Бошқалар*****
1	Бухоро тумани	100	100	100	0	0	0	100	0	0

Изох:: ** йирик солиқ тўловчилардан тушган тушумлар тўлиқ вилоят бюджетига йўналтирилади.*

*** Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиги бўйича 3111104, 3111106, 3111300, 3111600, 3111800 даромад кодларига тушадиган маблағлар тўлиқ туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларига йўналтирилади.*

**** Жарималар (3 430 103), давлат божи (3422 103) ва йиғимлар (3 422 203) бўйича тушумлар тўлиқ тегишли туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларига йўналтирилади*

***** Давлат унитар корхоналарининг соф фойдасидан давлат бюджетига ажратмалар бўйича 3412110, 3412112 даромад кодларига тушадиган маблағлар тўлиқ вилоят бюджети даромадларига йўналтирилади.*

****** Ҳукумат қарорлари билан белгиланган нормативларга асосан тақсимланади.*

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy budjetining
2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

mln.so‘mda

Budjetlar nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI	**92 857,4**	**184 086,8**
Buxoro tumani	92 857,4	184 086,8

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Xalq deputatlari Buxoro tuman Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2024 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

mln.so‘mda

Shahar va tumanlar	Ajratiladigan miqdori	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar
JAMI	**91 229,4**	**30 219,9**
Buxoro tumani	91 229,4	30 219,9

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-82-161-2-32-K/23-son qaroriga
7-ilova

Tuman mahalliy budjetida
2024 yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

mln.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**1 144,0**
1	Buxoro tumani	1 144,0